zitsiya tarkibi sifatida e'tirof etishadi. Ba'zi qarashlarda peyzajning tarkibiy qismi sifatida interyer ham sanab ketilgan.

Bobur asar voqealari bo'lib o'tayotgan joy manzaralarini ham mohir rassomlardek tasvirlaydi. Shuningdek, ayrim joy nomlarining etimologiyasini ham aytib o'tadi. Xususan, "Xo'jand bila Kandibodom orasida bir dashte tushubtur, Xodarveshg'a mavsumdur. Hamisha bu dashtta yel bordur. Marg'inong'akim, sharqidur, hamisha mundin yel borur. Xo'jandg'akim, g'arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor.

Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo'lukub, bir-birini topolmay "Ho darvesh", "Ho darvesh" deya-deya tamom halok bo'lurlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar [2;36-b.].

Ko'rinadi, Bobur joy nomini tasvirlash bilan birgalikda, u joy haqida, ya'ni, joy nomining kelib chiqishi va xosiyati haqida ham tushuntirish berib o'tadi.

Xulosalar. Demak, asarning sujet strukturasi boshqa tarixiy mazmundagi asarlardan tubdan farq qilib, o'ziga xos qurilish va mantiqqa ega. Bu sujet elementlarining joylashuvi va sujet voqealarining berilishida ham ko'zga tashlanadi. Xullas, asar sujeti va sujetni tashkil qilgan voqealar kitobxon ko'z o'ngida salkam qirq yillik tarixni jonlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). И.Султон. Адабиёт назарияси, Т., 1980, 179-бет.

(2). Заҳириддин Муҳаммад Бобур. "Бобурнома". Т., "Шарқ", НМАК, 2002.

(3). Иброҳимов А. "Бобурнома" – буюк асар. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.

(4). Лотман Ю.М. Структура художественного текста. Об искусстве. СПб., "Искусство – СПБ", 1998.

(5). Ёқубов И. Стуруктурал поэтика имкониятлари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2006, 3-сон.

(6). Ҳаққул И. Бадиий матн ва таҳлил муаммолари. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2009, 1-сон.

(7). Мелиев С. Структурализм ва структур таҳлил ҳақида. "Ўзбек тили ва адабиёти", 2008, 2-сон.

(8). Қудратуллаев Ҳ. "Бобурнома" ва тарих. "Тафаккур", 2001, 6-сон.

Qarshibayeva Uljan Davirovna (Samarqand davlat Chet tillar instituti professori, filologiya fanlari doktori; e-mail: k.uljan70.@mail.ru)

BALZAK ASARLARI QAHRAMONLARI TAQDIRIGA IJTIMOIY MUHIT TA'SIRI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Balzakning ikki "Gorio ota" va "Dahriyning ibodati" asari bosh qahramonlari Gorio ota va Deplen obrazlari qiyosiy o'rganilgan. XIX asrdagi ijtimoiy muhitning qahramonlar taqdiriga ta'siri ochib berilgan. Bir ijtimoiy muhit ta'siridan inqirozga yuz tutgan va yuksaklikka erishgan qahramonlar taqdiri tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *xarakter, individual xususiyat, ijtimoiy muhit, obraz, qahramon, e'tiqod, din, dahriy, realizm.*

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ НА СУДЬБЫ ГЕРОЕВ ПРОИЗВЕДЕНИЙ БАЛЬЗАКА

Аннотация. *Эта статья представляет собой сравнительное исследование характеров отец Горио и Деплена, главных героев двух произведений Бальзака "Отец Горио" и "Обедня безбожника". Раскрывается влияние социальной среды 19 века на судьбы героев. Анализу были подвергнуты судьбы героев, переживших кризис от влияния одной социальной среды и достигших высот.*

Ключевые слова: *характер, индивидуальная черта, социальное окружение, образ, герой, вера, религия, атеист, реализм.*

THE INFLUENCE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT ON THE FATE OF THE CHARACTERS IN BALZAC'S WORKS

Annotation*. This article is a comparative study of the characters of Father Goriot and Desplaines, the main characters of two works by Balzac "Father Goriot" and "Mass of the Atheist."The influence of the social environment of the 19th century on the fate of the heroes is revealed.The fates of the heroes who survived the crisis from the influence of one social environment and reached heights were analyzed.*

Keywords: *character, individualtrait, socialenvironment, image, hero, faith, religion, atheist, realism.*

Kirish. Har bir badiiy asar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlilga tortilar ekan, albatta, badiiy asarning shakl va mazmun jihatdan mukammalligi, asosan, uning sujet va kompozitsion muvofiqligida namoyon bo'lishi kuzatiladi. Yaratilayotgan badiiy ijod namunasi o'z-o'zidan aynan bir davrning dolzarb voqeligini asosiy g'oya sifatida yoritadi, muammolarini ilgari suradi va o'z g'oyasiga singdiradi. Davrning

o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida namoyon qilgan shaxslar esa davr qahramonlari sanaladi, ularni badiiy asar g‘oyasida obrazli yaratish orqali muallif yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar tahlili. Fransiyada nashr etilgan va O.de Balzakka bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar ichida, birinchi navbatda, P.Barberisning “Balzak va asr kasalligi” (1970) kitobini ta’kidlash lozim. Bunga yozuvchining tarjimayi holi, ijodi, tarixiy voqealar va Fransiyada XIX asrning birinchi yarmida adabiy jarayonda yuz bergan voqealarni keng kontekstda joylashtiradi [8].

D.N.Freyning ta’kidlashicha, “personajlar asarni yaratuvchi materialdir, ...qiziqarli asarni yozish uchun yorqin, kitobxon tasavvurida yaqqol namoyon bo‘ladigan personajlarni yaratish zarur”. Badiiy asarda har bir obraz o‘ziga xos xarakterga ega. Ushbu xarakterlar bir nechta uning portreti, nutqi, ichki olami, harakatlari, boshqa personajlar bilan munosabatlari va muallifning asar g‘oyasi doirasida qahramonlari dunyosini ochib berishi kabi ko‘rinishda shakllanadi [6;46-b.].

Buyuk adib o‘zining muazzam “Inson komediyasi”ga yozgan so‘zboshisida shunday ta’kidlagandi: “Fransuz jamiyati o‘zi tarixning yaratuvchisi bo‘lib chiqdi, menga esa uning kotibi bo‘lish vazifasi nasib etdi. Ehtimol, men shuncha tarixchilar tomonidan unutilgan tarix, ya’ni xulqlar tarixini yozib chiqishga muyassar bo‘larman. Men ko‘p bardosh va jasorat yig‘ib, nasib bo‘lsa, XIX asr Fransiyasi haqidagi kitobimni oxiriga yetkazarman” [7].

Balzak asarlarida xarakterlar o‘ta hayotiy bo‘lib, yorqin chizilgandir. Yozuvchi biron-bir hikoyada qahramon xarakterini to‘lig‘icha tarixi bilan yoritmaydi, uning rivojlanib borishi bilan butunlay tafsilotlari bilan bermaydi. Ta’kidlash lozimki, qahramonlar psixologiyasini tasvirlaganda, aniqrog‘i, ularning xatti-harakatini psixologik jihatdan ochib berganda, adib biror joyda noo‘rin tafsilot, sababsiz cheklovlarga o‘rin qoldirmaydi. U asosli qandaydir aniq detal bilan yoki ayrim harakatlar yordamida xarakterni ochib beradi.

G.Lukachning fikriga ko‘ra, Balzak badiiy obrazlarida ichki, chuqur muntazamlik mavjud bo‘lib, u o‘z manfaatlari va ehtiroslariga ega bo‘lgan mutlaqo mustaqil tirik odam. Balzakning badiiy obrazlari romanning asosiy yo‘nalishi bilan bog‘liq. Butun tugallangan qahramonlari murakkab ijtimoiy muhitda yashaydi. Balzak romanlarida badiiy obrazning tobora ko‘proq yangi xususiyatlarining paydo bo‘lishi yangi narsani ochib bermaydi, balki sujetni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muallif tomonidan mohirona yaratilgan obrazlar tizimi asar asosidagi falsafiy muammolarni, iloji boricha, mukammalroq ochib berishga imkon beradi. Har bir obraz asarda tasvirlanganidek bir ma’noli emasligini tushunish muhim. Balzak qahramonlari hech qachon tasodifiy xususiyatlarga ega emas, chunki ularning ma’lum bir vaqtda, hal qiluvchi daqiqalarda ham ahamiyatga ega bo‘lmagan biror-bir xususiyati yo‘q [4].

Tadqiqot metodologiyasi. “Abadiy obraz” tushunchasi adabiy jarayonda shakllangan va shu maktab vakillari A.N.Veselovskiy, A.Aarne, T.Benfey ishlarida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, turli xil mavzularda I.M.Nusinov, E.M.Meletinskiy kabi olimlarning tadqiqotlarida aks etgan nazariy qarashlari xarakterlidir. Jan Montaldo, Moris Dryuon, Filipp Tesson, Alen Shevalelarning mavzuga doir maqolalari “Figaro” gazetasida nashr qilingan. Bu manbalar mavzuni o‘rganishda poydevor vazifasini o‘taydi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ushbu tushuncha M.Baxtin, P.Berkov, A.Volkov, A.Nyamtsu, D.S. Lixachev, A.F.Losev, M.N.Xolbekov, M.Ahmedova va boshqa bir qancha olimlar ishlarida kuzatiladi. O‘lmas qahramonlar bir asardan ikkinchisiga o‘tib yangi hayot, yangi g‘oya va estetik funksiyalarni bajaradi.

Tahlillar va natijalar. Balzak “Dahriyning ibodati” (La Messe de l'athée 1836) hikoyasida bosh qahramon sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shifokor yuksak ehtiromga ega bo‘lgan Deplen hayotini tasvirlaydi. Ushbu hikoyadagi uchta qahramondan bittasi “Inson komediyasi”dagi bir qancha asarlar bilan bog‘liq, u yerda u, ko‘pincha, kichik epizodlar yoki hamrohlar rollarini o‘ynaydilar.

Deplen birinchi marta “Dahriyning ibodati” hikoyasida bosh qahramon sifatida paydo bo‘ladi. Ushbu obraz o‘zida insoniy fazilatlarni barcha narsadan, hatto o‘zining qarashlari hamda e’tiqodidan ham ustun qo‘yganini ko‘rsatuvchi asar qahramonidir. Bu qahramon o‘zini dahriy deb hisoblaydi:

Dahriylar va dindorlar orasida davom etib kelayotgan azaliy kurashga Deplen ham befarq bo‘lmay, allaqachon ikkilanishni yig‘ishtirgan edi. Deplenda bundan boshqa bir e’tiqod bo‘lishi mumkin emasdi. U yoshlik davridanoq butun tirik mavjudotning gultoji hisoblangan odamzodning umr kechirishi va vafotidan so‘nggi holati haqidagi haqiqatni bilib ulg‘aydi... [1;2-b.].

Balzakning “Inson komediyasi”ga kiruvchi yana bir asari “Gorio ota” romanidagi Gorio ota esa o‘z davrining obro‘li insonlaridan biri edi. Bu qahramon jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan inson obrazidir. Aynan uning keksalikdagi taqdiri qizlari tomonidan yaratilgani, qizlari yashash faqat kiborlar davrisida deb o‘ylab, boylikga ruju qo‘yishi, ularning ma’naviy zaifligi, axloqsizligi Gorio otani g‘ariblikka g‘arq qildi.

Balzakning “Gorio ota” va “Dahriyning ibodati” asarlarida bosh qahramonlar taqdiriga ta’sir etgan Gorio ota qizlari va Deplenga yordamini ayamagan Burja haqida fikrlarni keltirish orqali asar voqealari ri-

voji davom etadi. Gorio ota va Deplen obrazlarining hayotga qarashlari, qadriyatlar va inson tabiati haqidagi tushunchalardagi farqlar aniq tasvirlangan.

1. Gorio ota obrazi – bu oilaga, ya'ni, qizlariga bo'lgan muhabbat va shaxsning bu yo'lda qurbonlik ramzi. U o'z farzandlari uchun barcha narsani qurbon qilishga tayyor. Uning muhabbati va mehri, farzandlarining baxtli bo'lishi uchun o'zini qurbon qilishida namoyon bo'ladi.

2. Deplen obrazi – bu materializm va ma'rifatparvarlik ramzi. U o'z kasbiy faoliyati muvaffaqiyatni va shaxsiy manfaatlarni birinchi o'ringa qo'yadi. Uning maqsadi – jamiyatdagi mavqeyini oshirish va unga yoshligida, qiynalgan davrlarida moliyaviy hamda ma'naviy ko'mak bergan Burjaning orzularini ro'yobga chiqarish.

Gorio ota o'z farzandlariga mehrni ortig'i bilan bergan ota, evaziga oddiy e'tiborni ham kutmagan shaxs sifatida ajralib turadi. Uning hayoti, farzandlarining moliyaviy orzularini amalga oshirishdan iborat. Bu esa uning shaxsiy hayoti, orzu-umidlarini yo'qqa chiqaradi va umrining so'ngida moddiy va ma'naviy mehrga zor bo'lib dunyoni tark etadi.

Gorio ota, farzandlari uchun barcha narsani qurbon qiladi va oxir-oqibatda fojiali taqdirni qarshi oladi. Deplen, moliyaviy muvaffaqiyatga erishadi, insoniy aloqalar va ma'naviy qadriyatlarni ham saqlab qoladi.

Hayotning eng muhim tamoyillarini bu erdan topish mumkin, faqat ularni vayron bo'lgan buzilgan ma'noda. Balzak mavjudlik uchun shafqatsiz kurash, zavqqa intilish, insonni charchatadigan va vayron qiladigan hayot g'oyasi bilan qo'lga kiritilgan burjua shaxsining mohiyatini ajoyib tarzda tushundi. Xohish va qodir bo'lish-hayotning bu ikki shakli burjua jamiyati amaliyotida, har qanday axloqiy qonunlar va ijtimoiy tamoyillardan tashqarida amalga oshiriladi, faqat cheklanmagan egoizm tomonidan boshqariladi, bu shaxs va jamiyat uchun bir xil darajada xavfli va halokatli [5;83-b.].

Shunday qilib, Deplen odam jismida markazlar mavjudligini ta'kidlab, jonning abadiyligiga hech qanday asos topilmaganligini tasdiqladi. Bu dalil orqali u Xudo haqidagi dindorlar qarashlarini tahqirlamasa ham, o'z dahriylik qarashlarini ma'qullagan edi. Aytishlariga qaraganda, bu mashhur jarroh boshqa marhum daho insonlar kabi chalg'imay dorilbaqoga rixlat qilgan ekan [10].

Yuqoridagi hikoyadan keltirilgan parchada Deplen aql-idrokda ham falsafiy bilimlarda ham keng tafakkurli individual xarakterga ega bo'lgan obrazdir. Ijtimoiy muhit, mavjud jamiyat ushbu qahramonni dahriy qilib qo'yganini ko'rish mumkin.

...Pulni bir burda nondan ham ko'ra ko'proq chiroq yog'iga ishlatardim. Tun bo'yi ishlaganim uchun kechasi bilan yoritib turadigan chiroq yog'lari xarajatlari ovqatlarimga ketadigan chiqimlardan qimmatga tushardi... [1;9-b.].

Ushbu parchada Deplenning qashshoqlik botqog'idan chiqishning yagona yo'li "kuchli bilim va etuk mutaxxasis" bo'lish ekanligini tushungani va bor mablag'ini ilm-fanga bag'ishlagani shafqatsiz jamiyat ustidan g'alabasi edi. Gorio ota esa buning aksi, mablag'ini qizlarining hashamatli hayoti va ortiqcha dabdabalarga sarflaganida.

Balzak kichik bir hikoyada shunday qahramonni yarata olganki, u dahriy bo'lsa-da, hech bir vaziyatlarda insoniy fazilatlarini yo'qotmagan. Agar insonga uning e'tiqodlari taskin beradigan bo'lsa, o'sha vaziyatlarga ham tayyor bo'lgan Deplenday dahriy hayotda o'rnini topishi va yetuk jarroh bo'lishiga sababchi bo'lgan shaxs uchun ibodatni ham bajargan. Bu shaxsning o'z qarashlari ustidan g'alabasidir.

"Ey Xudo, odamlar o'lgach, sening maskaningga boradigan taqvodor odamlar orasida Burjani ham mavjudligini unutma, bechora duchor bo'lgan azoblaridan qutulishi va tezroq jannatga yo'l olishi uchun ko'magingni darig' tutma, barcha qiynoqlaringni menga bergin", deb iltijo qilardim. Xudo xolis, U rahmdil! Bordi-yu Xudo menga Burja e'tiqodiday bir e'tiqod ato etguday bo'lsa, butun boyligimni uning yo'liga sarflagan bo'lardim [1-b;14–15-b.].

Balzak badiiy asarlarini shunday yaratganki, muallif ma'lum bir sinfni, ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ifodalovchi ko'plab odamlarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar bilan bir qatorda, ma'lum bir shaxsning o'ziga xos individual xususiyatlarini tashqi qiyofasida, nutq jarayonida, kiyinishida, yurish, odob-axloq, imo-ishoralar, hatto ularning ichki ruhiy olami shaklida namoyon bo'lish xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

Faqat Byanshen, Deplen va shunga o'xshash ishchilar samimiy insoniy xislatlarini ko'rsatishga qodir: ularga boylik va oltinning ma'naviyatni emiruvchi kuchi ta'sir qilmagan. Fransuz jamiyatining o'zi tarixchi bo'lishi kerakligini ta'kidlab, o'zini muallifga – kotib roliga aylantirgan Balzak, bir vaqtning o'zida, romanda "ajoyib olam" bo'lishi, yozuvchi davlat arboblariga teng bo'lishi kerakligini ma'lum qiladi, chun-

ki u "inson ishlari" haqida ma'lum bir fikrlarni, "tarix falsafasi"ni beradi, shulardan kelib chiqib, "prinsiplarga to'liq sodiqlik" haqida ma'lum bir fikrlarni bildiradi [9].

"Gorio ota"dagi Gorio ota, "Dahriyning ibodati" hikoyasidagi Deplen kabi personajlar taqdirini ijodkor bir makonga, ya'ni "Voke uyi" nomli g'arib bir maskanga joylashtiradi. Makondan ko'rinadiki, barcha qahramonlari ijtimoiy muhit ta'sirida qiynalgan shaxslar edi. Bu qahramonlarning farqli jihatlari shundaki, Gorio ota to'kis hayotdan bu makonga keladi va foniy dunyoni xor bo'lib tark etadi. Deplen esa nochor ahvoldan yaxshi insonlar ko'magida to'kin hayot va yaxshi mavqega erishadi.

Balzakning "Insoniy komediya"sining ulkan badiiy olami, turli janrlarni turkumlashtirish asosida yuzaga keldi. Yozuvchi o'z asarini ta'riflar ekan, quyidagini e'tirof qiladi: "Mening asarim o'z geografiyasi, xuddi shuningdek, o'z genealogiyasi, o'z oilalari, o'z joyi, sharoiti, harakat qiluvchi shaxslari va faktlariga, shuningdek, o'z tamg'asi, o'z dvoryanlari va burjuaziyasi, o'z hunarmandlari va dehqonlari, siyosatdonlari va po'rimlari, o'z armiyasiga, bir so'z bilan aytganda, o'z olamiga ega" [3;36-b.].

Balzakning "Dahriyning ibodati" asarida ham insonning tiriklik chog'ida amalga oshirgan xayrli ishlari natijasi oxiratda o'z ajrini olishi bosh qahramon Deplen ibodati misolida badiiy talqin qilinadi. Deplen ham chinakam vijdonli shaxs edi. Uning e'tiqodi, uning Xudosi va din bo'yicha qonun-qoidasi yo'q edi. Ammo unda aslinsoniylik qonuniyatlari to'la mujassam. O'ziga qilingan yaxshilikni unutmaslik, bu yo'lda har narsaga tayyor bo'lish ham hammaning qo'lidan kelavermaydi.

Tout bourru qu'il était, Desplein serra la main du porteur d'eau, et lui dit:

– "Amène-les-moi tous" [2;16–17 p.].

Deplen qanchalik qattiq qo'l bo'lmasin, qo'lini mahkam qisib:

– Yana og'alaringdan kimki og'risa, huzurimga keltir, dedi [1;4-b.].

Balzak bu erda doktor Deplenning xususiyatini aniq va ta'sirli tarzda tasvirlaydi. "Amène-les-moi tous" ("Barchasini keltiring") so'zlari uning ishiga, asosiysi, uni shu darajaga etkazgan oddiy "suv tashuvchi"ga bo'lgan cheksiz hurmati ramzi edi.

Doktor Deplenning kasbiy va shaxsiy g'ururi uning ijtimoiy mavqeyi o'zgarishlarini belgilaydi. U Otel-De klinikasidagi tibbiy xizmatlari nafaqat o'z burchi, balki etuk jarroh bo'lishiga ta'sir qilgan insonga e'tiqodini ham ko'rsatadi. "Amène-les-moi tous" (Barchasini keltiring) so'zida yuksak kasbiy mas'uliyat va faoliyatga bo'lgan kuchli ishtiyoqini ifodalagan. U jamiyatdagi ma'naviy va ijtimoiy muhitdagi qadriyatlarni ham yoritadi. Doktorning ishiga bo'lgan sadoqati va insoniy fazilati, bag'rikengligini va o'tmishiga sadoqatini ko'rsatadi.

Xulosa. Gorio ota va Deplen obrazlari Balzakning asarida inson tabiati, oilaviy munosabatlar va ma'naviy qadriyatlar haqidagi tushunchalarni namoyon etadi. Ushbu ikki obraz, insonning hayotidagi muhim narsalarni, ya'ni oila, muhabbat va manfaatlarning o'rnini ko'rsatadi. Bu asarlardagi qiyoslasa arzigulik jihat Gorio ota jamiyatda alohida mavqega ega bo'la turib, frzandlariga muhabbati orqasidan inqirozga yuz tutadi. Deplen esa begona inson (Burja)ning otalarcha yordami bilan eng og'ir vaziyatlardan yetuk shifokor bo'lib shakillanadi va o'ziga beminnat ko'mak bergan kishining qalbi taskini uchun duo qilib, insoniy majburiyatlarini bajaradi. Shaxsning ijtimoiy muhit ta'siriga qaramasdan, irodasi va mehrini o'z o'rnida qo'llay olishiga bo'lgan ruhiy qudratini muallif ikki asar qahramonlari taqdirida kitobxonga yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Бальзак О.де. "Даҳрийнинг ибодати"."Шарқ юлдузи", рус тилидан Шерали Турдиев таржимаси. Тошкент, 2010, 2-сон, 15-бет. /Users/User/Desktop/Даҳрийнинг%20ибодати%20Бальзак.pdf.

(2). Balzac de H. Le messe de l'athée. Collection À tousles vents Volume 425: version 1.01. Paris: La Bibliothèque électronique du Québec, 1836, 42 p.

(3). Бальзак Оноре. Собрание сочинений. В 24-х томах. Т. 1, М., 1960, с. 36.

(4). Лукач Г. Литературные теории XIX века и марксизм. Георг Лукач. М., Гослитиздат. 17 ф-ка нац. Книги треста "Полиграфкнига", 1937, с. 293; Лукач Г. К истории реализма [1934 – 1936 гг.]. Георг Лукач. М., Гослитиздат, 1939, 372 с.

(5). Французский символизм. Драматургия и театр: пьесы. Статьи. Воспоминания. Письма. Сост., вступ. ст., коммент. В. Максимова. СПб., Гиперион, Гуманит. акад., 2000, 473 с.

(6). Фрэй Д.Н. Как написать гениальный роман. СПб., "Амфора", 2005, 239 с.

(7). Холбеков М.Н. Оноре де Бальзак ва "Инсон комедияси". "Жаҳон адабиёти", 2009, 1-сон, опубликовано 20.03.2015. Ziyouz.uz

(8). Barbéris P. Balzac et le mal du siècle. Contribution à une physiologie du monde moderne: en 2 tomes. Paris: Gallimard, 1970, t. 1, 1799–1829, 1190 p.

(9). https://www.bibliofond.ru/view.aspx?id=453745